



## XALQ DOSTONLARIDA TO'Y MAROSIMI VA UDUMLARNING AKS ETISHI

*Ilmiy rahbar: Shahodatbonu Imomnazarova Xabitovna*

*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori  
instituti katta ilmiy xodimi*

**Mirzayeva Shaxrinsa Komiljon qizi**

*O'zDSMI Farg'ona mintaqaviy filiali  
"Folklor va etnografiya" yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada xalq dostonlarida uchraydigan to'y marosimlari, urf-odatlari va an'analari – "qiz tanlash", "qiz ko'rish", "sovchilik", "og'iz iskash", "makiyon sovchi", "ro'mol bog'lash" hamda "Beshik kerti" udumlari haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *folklor, doston, marosim, urf-odat, epos, to'y, sovchi, "Alpomish", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Ravshan".*

Bugungi davr milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanish jarayoni madaniy-ma'naviy merosimizni, shu jumladan asrlar davomida shakllangan badiiy an'alarimizni har tomonlama o'rganishni taqozo etmoqda. Bu borada xalqimizning bebaho ma'naviy mulki bo'lgan marosimlar, udumlar va an'alarimiz dolzarb masalalardan biri bo'lib, ularni keng miqyosda tadqiq etish hozirgi kunda alohida ahamiyatga egadir. Har bir sohaning o'z tarixi bo'lgani kabi, xalq og'zaki ijodi borasidagi izlanishlarning ham o'z ildizlari mavjud. Bu izlanishlar ildizi uzoq o'tmishga borib taqaladi.

Folklor – turli davrlarda turlicha o'rganilgan, turlicha yondoshuvlar bo'lgan, biroq mustaqillikdan keyin u tom ma'noda yangicha mazmun va mohiyat kasb etdi. "Alpomish" dostonining ming yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 maydagi PQ-4320-sonli "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi", qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston xalq baxshisi" unvoni 2000 yil 26-may kuni ta'sis etildi. Bu esa milliy ma'naviyatimizning asoslaridan biri bo'lgan xalq ijodining yuksalishiga xizmat qildi. "Alpomish" dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir, – deb yozadi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida. – Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas doston bo'lsa, "Alpomish" ana shu dostonning shoh bayti, desak, to'g'ri bo'ladi"<sup>102</sup>.

Bu nafaqat "Alpomish" dostoniga, balki butun folklor asariga, milliy ma'naviyatimizga berilgan yuksak bahodir. Shuning uchun ham mustaqillikka erishganimizdan keyin folklor milliy ma'naviyatimizni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida o'rganilib kelinmoqda.

<sup>102</sup> I.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat 2008. 33-bet





Davlatimiz rahbarining 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2018-yil 6-apreldagi “Xalqaro maqom san‘ati anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorlari o‘zbek mumtoz musiqasi tarixida yangi davrni boshlab bergan muhim hujjatlardan biri bo‘ldi. Milliy qadriyatlar, an‘analar, urf-odatlar va marosimlarning tiklanishi musiqa sohasida ham ancha o‘zgarishlarga olib keldi.

Qadimiy milliy musiqamizdagi boy badiiy-tasviriy vositalar bilan bir qatorda, “Baxshichilik san‘ati” yana ham yuksak darajaga ko‘tarildi. Buyuk ajdodlarimiz tomonidan ijro etilgan, og‘izdan-og‘izga, avladdan-avlodga o‘tib kelayotgan xalq dostonlariga qaytadan jon bag‘ishlandi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Baxshi deganda ko‘z oldimizda soch-soqollari oqargan, ravon so‘zlovchi donishmand nuroniy obrazi namoyon bo‘ladi. Yangi O‘zbekistonda yaratilgan sharoit va e‘tibor tufayli bugungi kunda baxshichilik san‘ati festival va tanlovlarida tobora yosh yigitlar va hattoki qizlar ham do‘mbira chertib, tor chalib, doston va termalarni baralla kuylashmoqda. Yurtimizda baxshichilik o‘z an‘ana va maktabiga ega san‘atga aylandi. Jahondagi birgina davlatda prezident farmoni bilan “O‘zbekiston xalq baxshisi” degan davlat mukofoti – faxriy unvon beriladi. U ham bo‘lsa bizning yurtimizda! Endilikda “Baxshichilik san‘ati” tushunchasi YuNESKO orqali butun dunyoda keng targ‘ib qilinmoqda. Endi bu madaniyat yo‘qolib ketmaydi, aksincha rivoj topib boradi.

O‘zbek xalqi qadimdan o‘zining boy madaniy merosiga ega. Insonlar hayotidagi turli marosimlar, ma‘lum odat va an‘analar, ularning yashayotgan muhiti, turmush tarzi xalqning o‘zligi, til va madaniyati shakllanib, sayqal topishiga xizmat qilgan. Shu asnda har bir millat va elatlar takomillashgan barqaror urf-odatlariga, marosimlariga, rasm-rusumlariga, an‘analariga ega bo‘lganlar. Lekin millatning urf-odatlari, turmush tarzini saqlab qolish va rivojlantirish uchun, albatta, ma‘lum shart-sharoitlar lozim bo‘lgan. Bu shart-sharoitni eng avvalo jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muhit, siyosiy hokimiyat belgilagan.

O‘zbek xalqi hayotida doimiy yashab kelayotgan milliy qadriyatlarimizdan biri sovchilik hisoblanadi. O‘zbek nikoh to‘yining birinchi bosqichida "qiz tanlash" yoki "qiz ko‘rish" va "sovchilik" udumlari muhim o‘rin tutib kelgan. "Qiz tanlash"da, odatda, ayollar jonbozlik ko‘rsatganlar. Sovchilikda esa erkaklar qatnashgan. An‘anaga ko‘ra, tanlangan qiz xonadoniga ayollar borib "og‘iz islash" (gap olish, ma‘lumot olish) qilishgan. Xalq orasida bunday sovchilik "makiyon sovchi" nomi bilan yuritilgan. Sovchilikda ayollar ishtirok etgani uchun "makiyon sovchi" deyilgan. Kuyov tomon sovchilikdan qaytib kelgan kishilarga “Bo‘rimi, tulkimi?” – deb savol beradilar. Agar sovchilarning ishi ijobiy hal bo‘lgan bo‘lsa – “bo‘ri”, qiz tomon norozi bo‘lgan bo‘lsa – “tulki” deb javob berganlar.

Bu haqida O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi Shahodatbonu Imomnazarova tadqiqotida batafsil ma‘lumot berilgan.

"Og‘iz islash" jarayonida qizning "boshi bo‘shmi" yoki "boshi bog‘liqmi" ekanligi surishtirilib, rasmiy holda sovchi bo‘lib kelishgan. Bu udumlar qadimda Surxon







vohasida istiqomat qiluvchi aholi orasida o'tkazilgan. "Og'iz iscash" nomi bilan yuritiluvchi sovchilikning dastlabki bosqichi "Alpomish" dostonida ham tasvirlangan. Unda yetti qalmoq bahodirlarning onasi Surxayil Qorajon uchun Barchin yashaydigan xonadonga "og'iz iscash" maqsadida tashrif buyuradi. Bu jarayon dostonida Surxayil tilidan keltirilgan quyidagi she'riy parchada o'z ifodasini topgan:

*O'zbaklarning yaxshi qizi bor bo'lsa,  
Atashtirib ro'mol berib kelaman.  
O'zbaklarning yaxshi qizi bor bo'lsa,  
Boshi bo'shmi deyin, avval so'rayin.*

Qarluqlarning nikoh to'yi marosimi udumlari haqida etnograf K.Shoniyozov shunday degan: "Kelin bo'ladigan qiz tanlangandan keyin yigit tomonidan ikki ayol – kuyovning ammasi, xolasi yoki turmushga chiqqan opasi sovchilikka borishadi". Agar shu ma'lumotlar asosida "Alpomish" dostonidagi Surxayilning Barchinga sovchilikka borish epizodi o'rganilganda, Surxayil tomonidan shu udumning noto'g'ri ado etilgani, buzilganini kuzatish mumkin. Chunki udumlarimizda yigitning onasi emas, unga boshqa yaqin qarindosh ayol sovchilikka borishi lozim bo'lgan. Sovchilik bilan bog'liq "ro'mol bog'lash" udumi qizning boshini "band qilish", ya'ni fотиha qilish rasmini ramziy ifoda etadi. "Ro'mol o'rash" marosimidan so'ng bu qizga boshqa xonadondan sovchi bo'lib kelish mumkin bo'lmaydi. Shu qizning endi atalgani bor hisoblanadi.

Surxon vohasida yashovchi aholining nikoh to'yi marosimi tarkibidagi bir qator: "sovchilik", "non sindirish", "fotiha to'yi", "kuyov sinov", "olovdan aylantirar", "kelin salom", "yuz ochdi", "it irillar", "kampir o'ldi", "oyna ko'rsatar", "shirin suv ichirar", "soch siypatar" singari udumlar mavjud. Bu udumlarning ayrimlari chekka hududlarda hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

Folklorshunos D.O'rayevaning qayd etishicha: Biz o'zbeklarning odatimizga ko'ra, nikoh to'yida uzatilayotgan qizning yig'lamasligi el ichida uyat sanaladi. Hatto u sevgan kishisiga o'z xohishi bilan tegayotgan bo'lsa-da, baribir, yig'lashi o'rinli hisoblanadi. Sababi shundaki, turkiy xalqlar orasida «yig'i jon ato etadi» degan ibtidoiy tushuncha mavjud bo'lgan. Shu vajdan hozirgacha qizlik ruhiyati o'layotgan bir lahzada qizlarning yig'lashi ularning ayollik ruhiyati bilan qayta tirilishi uchun zarur hisoblanadi va bu hol ma'lum bir hayot bosqichida o'ziga xos marosim tarzida shakllangan".

"Alpomish" dostoni "nikoh to'yi" jarayoni bilan bog'liq maishiy hayot detallariga boy. Asarda turkiy xalqlar urf-odatlariga oid elementlar keng qamrab olinganligi jihatidan doston o'ziga xos qomusiy ahamiyat kasb etgan. Alpomish dostonida aks ettirilgan ayrim marosimlar hozirgacha maishiy hayotda o'z o'rniga ega bo'lsa, ayrimlari bugungi turmush tarzimizda mavjud emas, o'tkazilmaydi.

O'zbek xalqining qadimiy rasm-rusumlari, dunyoqarashi, ishonch-e'tiqodlari, turmush-tarzi va hayot haqidagi falsafiy qarashlari, asrlar bo'yi jamlangan hayotiy tajribalari va turmush ko'nikmalarini o'zida mujassamlashtirgan eng jozibali marosimlarimizdan biri – nikoh to'yidir. Xalqimizning qadimiy e'tiqodlarini, madaniyat





tarixi, orzu intilishlari, hayotga munosabatini o'rganishda nikoh to'yi bilan bog'liq marosimlar muhim ahamiyatga egadir. Dunyodagi ko'plab boshqa xalqlar singari o'zbek to'y marosimlari tizimida nikoh to'yi o'zining turli xildagi marosimlarga, irim-sirimlarga boyligi, etnografik manbalarining rang-barangligi bilan alohida ajrab turadi. O'zbek xalqi nikoh to'ylari majmuiga kiruvchi Farg'ona vodiysi nikoh to'ylari ham oilaviy turmush va ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, uning ishtirokchilari tomonidan murakkab urf-odatlar va udumlar bajarilgan. Nikoh to'yi bilan bog'liq marosimlarda ko'plab qadimiy e'tiqod masalan, fetishizm, totemizm, tabiat e'tiqodi, olov va o'choq ibodati, ajdodlar e'tiqodiga sig'inish, shomonlik va boshqa bir qancha demonologik ko'rinishlar izlarini uchratish mumkin.

Masalan Farg'ona vodiysining ayrim hududlarida nikoh to'y marosimida kelin-kuyovning olov atrofida aylanishi ota-bobolarimizdan qolgan udum bo'lib, bugungi kunda ham ushbu urf-odat saqlanib qolgan.

"Ravshan" dostonidagi udumlarga nazar soladigan bo'lsak, Yovmit elining podshosi Go'ro'g'libek "Mol ham yotga ketmasin, bola ham yotga ketmasin" – deb Avazxon bilan Hasanxonni quda qilmoqchi bo'ladi. Avazxonning qizi Gulanning qo'lini so'rab, nabirasi Ravshan bilan fotiha qilish uchun sovchilikka boradi.

Avazxon otasi Go'ro'g'libekni mehmonxonaga olib kirib, xush keldingiz, deb, dasturxon tuzab, noz-u ne'matni to'kib, qand ustiga sharvat, ziyofat ustiga ziyofat qilib, otasini siylab xizmat qiladi. Avazxon polvon otasining kelgan sababini bilmoqlik uchun joyidan turib, otasiga qarab, yo'l bo'lsin, deb so'raydi. Shunda Go'ro'g'libek Bol Avazga;

Otang keldi sening so'zing olmoqqa,  
Ko'nglidagi sirni bayon qilmoqqa,  
Shul sababli mehmon keldim uyingga;  
Hasanman o'zingni quda qilmoqqa.

Otangning, farzandim, tilin olinglar,  
Hasanman ikkoving quda bo'linglar,  
Ravshanga ber Gulanday qizingni,  
Yovmitning eliga to'ylar beringlar! – deya so'z ochadi. Dostonda bu udum orqali o'zbek xalqining mehmondost ekanligi bilan birga "sovchilik" an'analarning nechog'lik qadimiy ekanligi ham o'z ifodasini topgan.

Ko'p hududlarda xalq an'anasiga ko'ra sovchilikka yurishda ayollar faollik qilsa, "Ravshan" dostonida vohalilklarga xos – sovchilik erkaklar tomonidan amalga oshiriladi.

Bugungi kunga kelib erkak va ayollarning sovchilikka birgalikda borishi urfga aylanib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Negaki, azaldan oilada erkak kishining xohish-irodasi, roziligi muhim o'rin tutib kelgan. Shuningdek, bugungi tezkor zamonda ko'p masalalarni oila boshliqlarining ishtirokida birdan hal qilish, aniq qarorlarga kelish nuqtai nazaridan sovchilikda erkaklarning ishtirokini qoramaymiz.








“Oshiq G’arib va Shohsanam” dostonida esa yana bir udum aks ettirilgan. Bu udumning nomi “beshik kerti” deb nomlanadi. Ushbu doston qahramoni Shohabbos va vaziri Hasanson bilan birga ov qilayotgan chog’ida kiyikni uchratib qoladilar. Vaholanki, kiyik bo’g’oz ekanligini bilib, otmaydilar. Shunda Shohabbos vaziriga qarab; – “ikkimizning hotinimiz ham og’iroyoq, kel qiz farzand ko’rsak dugona, o’g’il farzand ko’rsak do’st bo’lishsin. Agar birimizda qiz, birimizda o’g’il bo’lsa qudachilik rishtasini bog’laylik” – deya va’dalashadilar. Bunday udumni vodiya ham voha tomonlarda ham uchratish mumkin. Bu udum yana bir nom bilan ataladi, ya’ni “quloq tishlatar”. Yoshi kattalar farzandlarini yoshlik vaqtidan qulog’ini tishlatib qo’yadilar. “Quloq tishlatish”ning ma’nosi bir-biriga fotiha qilinish ya’ni boylanishdir.

Xulosa qilib aytganda, aksariyat xalq dostonlarida maishiy hayotimizda muhim o’rin egallaydigan oilaviy-maishiy marosimlar o’z badiiy ifodasini topgan. Xalqimizda bu turdagi urf-odatlar talaygina va shunga o’xshash bir qator urfga aylanayotgan udumlar ham yo’q emas. Qadimda ota-bobolarimiz yashagan davrda ham to’y marosimlari, udumlar bo’lgan va hozirgi kunda ham mavjud. O’tmish va bugungi kundagi marosimlarning farqi shundaki, qadimda ota-bobolarimiz ixcham va kamxarajat to’y o’tkazishgan bo’lsa, bugungi kunda to’y marosimlari va udumlar turli xil, serxarajat, dabdabali o’tkazilmoqda. Shu o’rinda azaldan to’y-tomosha oshiftasi o’zbek xalqining to’y marosimlari bilan bog’liq an’analar hamda rasm-rusumlari faqatgina xursandchilik va shodiyonalik bo’libgina qolmasdan, balki, muayyan maqsadga qaratilgan bo’lib, asrlar davomida rioya qilinib kelinayotgan diniy udumlar majmui hamdir. Marosim, udum, urf-odatlar hamma vaqt hamma joyda kishilarning talabi, ehtiyoji bilan o’tkaziladi. Ushbu hayotiy hodisaning turli elatlar va xalqlarning tarixiy jihatdan kasb etgan xususiyatlarini o’rganish, uning tarkibida saqlanib qolgan umuminsoniy, milliy va mahalliy an’analarini saqlab qolish, davr talablariga mos kelmaydigan jihatlarni isloh etish, kamxarajatli, ixcham to’ylar qilishga xalqimizni odatlantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Umuman olganda, xalqimizning tarix sinovlaridan o’tgan to’y-tantanalari, marosimlari, urf odatlari, qadriyatga aylangan xalqchilik ruhi bilan sug’orilgan jihatlari halollik, poklik, mehnatsevarlik xislatlarini namoyon etadi. Xalqning o’ziga xos milliy ko’rinishlarining barchasi o’zbek xalqining to’ylarida o’z ifodasini topadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Karimov. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat 2008.
2. Khabitovna I. S. Historical Occurrence And It’s Effect On «Ulan» Genre Perormers’ Repertoire And Uzbek-Kazakh Folklore Connections //ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies. – 2018. – T. 7. – №. 1. – C. 65-70.
3. D. O’rayeva. O’zbekiston xalqlari etnografiyasi va folklori. “O’qituvchi” Nashriyot-matbaa ijodiy uyi / Toshkent – 2007





4. K. Shoniyozov O'zbek xalqining shakllanish jarayoni /1 t. SMF 2. 0. 7/SMF 2011
5. Sharipova M. "Alpomish" dostoni-o'zbek xalqi tarixi badiiy ifodasi // (buxdu. uz). - 2020. - T. 1. - №. 1.
6. Sharipova M. O'quvchi yoshlar tarbiyasida o'lmas an'ana va marosimlarning ahamiyati // (buxdu. uz). - 2020. - T. 1. - №. 1.
7. Sharipova M. Qahramonlik eposi-milliy madaniyatimizning nodir xazinasini ("Alpomish" dostoni misolida) // (buxdu. uz). - 2020. - T. 1. - №. 1.
8. Sharipova M. O'lmas an'ana va marosimlar-ma'naviyatimizning nodir xazinasini
9. M.B.Sharipova "Alpomish" dostonida "kampir o'ldi" marosimi tasviri  
SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2/ISSUE7/2021 ISSN: 2181-1601
10. "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni – muallif tomonidan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Otaxon baxshi Matyoqubovdan yozib olingan.
11. O'zbek xalq dostoni / Ravshan (Go'ro'g'li dostonlari turkumi) "Yangiyul Poligraph Service" Toshkent – 2019
12. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES / O'zbekistonda to'y an'analari tarixi va buguni / Xadicha Saydullayeva, Akrom Ochilov / 2021-yil

